

MADANIYAT KO'ZGUSIDAGI TIL: SALOMLASHUV VA MULOQOT ODOBLARINING TA'LIMDAGI ROLI

Jumaniyazova Lobar Sirojiddin qizi

O'zDJTU 3-bosqich talabasi

Ilmiy maslaxatchi: G'ulomova Rayxona

Katta o'qituvchi, O'zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda salomlashish va odob-axloq ifodalarining lingvistik va madaniy xususiyatlari taqqosiy tahlil qilinadi. Salomlashish va odob-axloq ifodalari har bir jamiyatning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek tilida salomlashish va odob-axloq ifodalari ko'proq kollektivizm, yoshi kattalarga hurmat va diniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida esa individualizm, tenglik va rasmiylikka urg'u beriladi. Maqolada ushbu farqlar tahlil qilinib, ularning til o'rganish va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: salomlashish, odob-axloq, til va madaniyat, O'zbek tili, ingliz tili, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the linguistic and cultural features of greetings and expressions of politeness in Uzbekistan and English-speaking countries. Greetings and expressions of politeness reflect the cultural values of each society. In the Uzbek language, they are associated with collectivism, respect for elders, and religious values, while in English, emphasis is placed on individualism, equality, and formality. The article analyzes these differences and their significance in language learning and intercultural communication.

Keywords: greeting, politeness, language and culture, Uzbek language, English language, intercultural communication.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini egallash bilan cheklanib qolmaydi. Tilni chuqur o'zlashtirish, uni madaniy matndagi ma'nolari bilan anglashni ham talab qiladi. Ayniqsa, salomlashuv, minnatdorchilik kabi oddiy nutqiy holatlar jamiyatning madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bo'ladi. Shu sababli, ingliz tili darslarida til bilan birga u bog'liq bo'lgan madaniyatni ham o'rgatish o'ta muhim sanaladi. O'zbek va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar salomlashuv va boshqa ko'pchilik ifodalarida sezilarli farqlarga ega. Bu farqlarni anglash, ularni tahlil qilish o'quvchilarda madaniyatlararo tafakkurni shakllantiradi, kommunikativ idrokni rivojlantiradi (Qodirova, 2022). Ushbu maqolada aynan shu jihatlar, ya'ni madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida salomlashuv va muloyimlik ifodalarining o'rnini tahlil

qilinadi. Shuningdek, til o'rgatish jarayonida ushbu farqlardan qanday foydalanish mumkinligi, pedagogik yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi.

O'zbek tilida salomlashish va odob-axloq ifodalari jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, diniy e'tiqodlari va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Salomlashishning eng keng tarqalgan shakli bu "Assalomu alaykum" bo'lib, bu ibora arab tilidan olingan bo'lib, "Sizga tinchlik bo'lsin" degan ma'noni anglatadi (Karimova, 2019). Bu salomlashish shakli har qanday yoshdagi va ijtimoiy mavqedagi insonlar o'rtasida qo'llaniladi. Javob sifatida "Vaalaykum assalom" deyiladi. Yoshlar kattalarga salom berishda ko'proq e'tiborli bo'lishadi. Masalan, erkaklar o'zaro qo'l berib salomlashishadi, lekin erkak va ayol o'rtasida bu harakat kamroq uchraydi. Bundan tashqari, yoshi kattalarga salom berishda o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib, yengil egilish odati mavjud bo'lib, bu hurmat ifodasidir. O'zbek tilida odob-axloq ifodalari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, "Rahmat", "Iltimos", "Uzr" kabi so'zlar kundalik muloqotda keng qo'llaniladi. Shuningdek, yoshi kattalarga murojaat qilayotganda "aka", "opa", "ota", "ona" kabi hurmat ifodalari ishlatiladi. Bu ifodalar jamiyatdagi ijtimoiy tartib va hurmatni aks ettiradi. Ingliz tilida salomlashish va odob-axloq ifodalari ko'proq individualizm va tenglikka asoslangan. Salomlashishning eng keng tarqalgan shakllari "Hello", "Hi", "Good morning", "Good afternoon", "Good evening" bo'lib, ular rasmiy va norasmiy holatlarda qo'llaniladi (G'ulomova, 2025). Qo'l berib salomlashish ham keng tarqalgan bo'lib, bu harakat erkaklar va ayollar o'rtasida ham qabul qilingan. Odob-axloq ifodalari sifatida "Please" (iltimos), "Thank you" (rahmat), "Sorry" (kechirasiz), "Excuse me" (kechirasiz) kabi so'zlar keng qo'llaniladi. Bu so'zlar muloqotda muloyimlik va hurmatni ifodalaydi. Ingliz tilida murojaat shakllari ham muhim bo'lib, "Mr.", "Mrs.", "Ms.", "Sir", "Madam" kabi so'zlar rasmiy muloqotda ishlatiladi. Ingliz tilida salomlashish va odob-axloq ifodalari ko'proq rasmiylik va tenglikka asoslangan bo'lib, bu jamiyatdagi individualizm va shaxsiy erkinlikni aks ettiradi.

Muhokama



Til o'rganish jarayonida salomlashish va odob-axloq ifodalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu ifodalar orqali o'rganilayotgan tilning madaniyati, ijtimoiy tartibi va qadriyatlari haqida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, bu ifodalarni to'g'ri qo'llash madaniyatlararo muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabasi "Please", "Thank you", "Sorry" kabi so'zlarni to'g'ri qo'llash orqali ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatda o'zini erkin his qilishi mumkin. Aksincha, ingliz tilida so'zlashuvchi kishi O'zbekistonda "Assalomu alaykum", "Rahmat" kabi so'zlarni o'rganib, o'zini hurmatli mehmon sifatida ko'rsatishi mumkin. Ingliz tilini

o'qitishda faqat grammatikani yoki so'z boyligini emas, balki madaniy komponentlarni ham o'rgatish muhimdir. O'quvchilar nafaqat qanday gapirishni, balki qanday qilib madaniyatga xos tarzda mulohaza yuritishni, munosabat bildirishni va o'zaro muloqot qilishni o'rganishlari zarur. Masalan, o'zbek o'quvchisiga inglizcha "Nice to meet you" yoki "How do you do?" kabi rasmiy salomlashuv iboralari o'rgatilganda, bu iboralarning qanday hollarda ishlatilishi, qanday yuz ifodalari ishlatilishi va qanday munosabat uyg'otishi ham tushuntirilishi kerak. Aks holda, bu iboralar mexanik ravishda yodlab olinib, noto'g'ri holatlarda ishlatilishi mumkin (Sobirova, 2020). O'zbek madaniyatida "yuzma-yuz salomlashish", ya'ni insonning ko'zlariga qarab salom berish odatiy hol bo'lsa, ingliz madaniyatida bu har doim ham maqbul emas — ayrim hollarda uzoq muddat ko'zga tik qarash noqulaylik tug'diradi. Shu kabi tafovutlarni dars jarayonida muhokama qilish, o'quvchilarning tilga va madaniyatga nisbatan hurmatini oshiradi. Ko'p hollarda maktab o'quvchilari grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishsa ham, madaniy jihatdan mos kelmaydigan holatlarda noto'g'ri iboralarni ishlatishadi. Misol uchun, "How are you?" savoliga har doim sog'liq haqida javob berish o'zbek o'quvchilariga tabiiy tuyulsa-da, ingliz tilida bu savol ko'proq muloyimlik uchun aytiladi, chuqur tahlil talab qilmaydi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilari o'zbek o'quvchilarining salomlashishda haddan tashqari rasmiy yoki keragidan ortiq hurmat ifodalarini qo'llashiga e'tibor berishgan. Bu esa o'zaro muloqotda masofani ortiqcha uzoqlashtirib, suhbatni samimiylilikdan

uzoqlashtirgan.

Til o'rgatish jarayonida quyidagi pedagogik uslublarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. **Madaniyatni jarayonni o'zida o'rgatish:** Har bir til o'zi bilan bog'liq madaniyat bilan tushuntirilishi kerak. Salomlashish, minnatdorchilik, kechirim so'rash kabi iboralar har bir madaniyatda qanday ishlatilishi, qanday ohangda aytilishi bilan birga bo'lishi tushuntirilishi zarur.

2. **Sahna ko'rinishlari:** O'quvchilarga ingliz va o'zbek madaniyatiga oid rollar berib, ularni turli salomlashuv yoki muloyimlik holatlarini ifodalashga undash mumkin. Bu metod orqali o'quvchilar madaniyatlararo farqlarni chuqurroq tushunadilar.

3. **O'zaro taqqoslash tahlil topshiriqlari:** Talabalar ikki madaniyatdagi salomlashuv yoki odob-axloq iboralarini taqqoslaydigan jadval yoki insho yozish orqali farqlarni o'zlari mustaqil anglaydilar (Yusupova, 2020).

Xulosa

Salomlashish va odob-axloq ifodalari tilning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyat ko'zgusi hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi bu ifodalarning farqlari jamiyatlarning qadriyatlari, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilmalari bilan bog'liq. Ingliz tilini o'rgatishda ushbu madaniy farqlarga e'tibor qaratish, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, til o'rganish jarayonida faqat grammatikani emas, balki madaniyatni ham o'rganish zarur, chunki bu til egasi bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulomova, R. (2025). *Developing intercultural competence*. Toshkent: Bookmany print nashriyoti, (8), 44.
2. Gulomova, R. (2022). AUTHENTIC MATERIALS AS A SOCIOLINGUISTIC APPROACH. *British View*, 7(1).
3. Karimova, S. M. (2019). *O'zbek tili va ingliz tilida salomlashuvning madaniy xususiyatlari*. Til va adabiyot ta'limi, (2), 25–32.
4. Qodirova, N. T. (2022). *Madaniyatlararo kommunikatsiyada til va madaniyatning o'rni*. O'zbek tilshunosligi jurnali, (1), 13–19.
5. Sobirova, D. Sh. (2020). *Ingliz tili ta'limida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari*. Zamonaviy ta'lim muammolari, (3), 44–49.
6. Yusupova, Z. A. (2020). *Til va madaniyat o'zaro bog'liqligi*. Filologiya fanlari jurnali, (4), 55–60.